

ADABIYOTSHUNOS OLIMLARGA BAG‘ISHLAB TUZILGAN BIBLIOGRAFIYALAR

*Matmuradova Malika Isayevna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasи
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs ko‘rsatkichlarning dastlabki shakllanish jarayonlari, rivojlanish bosqichlar, boshqa bibliografik qo‘llanmalardan farqi, adabiyotshunos olimlarga bag‘ishlab tuzilgan bibliografik qo‘llanmalarda materiallarning joylashishi hamda yordamchi apparatlar bilan ta’minlangani haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, adabiyotshunos, bibliografik qo‘llanma, yordamchi apparat, vaqtli matbuot.

Abstract. This article provides information on the initial formation processes of personal indicators, stages of development, their differences from other bibliographic guides, the location of materials in bibliographic guides dedicated to literary scholars, and the provision of auxiliary devices.

Keywords: person, literary scholar, bibliographic guide, auxiliary device, periodical press.

Shaxs bibliografiyasi yoki ko‘rsatkichi ma’lum bir shaxsning: asarlari va u haqida yozilgan asarlarni aks ettiradi.

Bibliografiya alohida bir tarmoq, faoliyat sohasi sifatida yuzaga kelibdiki, u dastlab bibliografiyaning shu turi shaklida mavjud bo‘lgan.

XX asrning 2-choragiga kelib-shaxs bibliografiyasi bibliografiyaning mustaqil turi sifatida rivojlandi, uslubiy jihatdan takomillashtirildi va u ko‘p hollarda fanning rivojiga, ma’naviy merosni o‘rganishga, yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi yordamchi manba bo‘lis qoldi.

Shaxs ko‘rsatkichlari fan, maorif, ishlab chiqarishda mashhur bo‘lgan olimlar, yozuvchilar va shoirlarga bag‘ishlab tuziladi. Bunday ko‘rsatkichlar, bir tomonidan, o‘sha yozuvchi yoki olimning ijodini keng va chuqur o‘rganishga yordam bersa, ikkinchi tomonidan, adabiyotshunoslik targ‘ibotida, hamda yozuvchi va olimlar haqida ilmiy izlanishlar olib borayotganlar ishini ham ancha yengillashtiradi.

Adabiyotshunos olimlarga bag‘ishlab tuzilgan shaxs ko‘rsatkichlar universitetlar, institutlar, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasi tomonidan tuzilgan shaxs ko‘rsatkichlari, adabiyotshunos olimlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan qo‘llanmalardir. Shaxs

ko‘rsatkichlarini tuzish uslubiyati asosan bir xil, ya’ni dastlab shaxs hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy sanalari, hayoti va ijodiy faoliyati haqida biografik ma’lumot, shaxs Shuningdek, adabiyotshunos olimlardan adabiy tanqidchiligining yetakchi namoyanlaridan biri M.Qo‘shtonovga, va Xodi Zarifovlarga ham bibliografiyalar tuzilgan. Biroq bu bibliografiyalar alohida ko‘rsatkich bo‘lib chop etilmagan. Ularning hayoti, ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab yozilgan kitoblarda berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi FA Fundamental kutubxonasi tomonidan adabiyotshunos olimlarga bag‘ishlab tuzilgan shaxs ko‘rsatkichlar “O‘zbekiston olimlari bibliografiyasiga doir materiallar” nomli turkumda rus va o‘zbek tillarida 1962 yildan chiqariladi. Hozirga qadar adabiyotshunos olimlardan “Izzat Otaxonovich Sultonov”(1970,1981), “Voxid Abdullayevich Abdullayev”(1973), “Yusuf Sultonovich Sultonov”(1982), “Olim Usmonovich Usmonov”(1984), “Murotbek Karimovich Xamrayev” (1985) kabilar (FA fundamental kutubxonasi va Til va adabiyot instituti hamkorligida), “Ismatulla Abdullayevich Abdullayev”(1989) (FA fundamental kutubxonasi va Sharqshunoslik instituti hamkorligida), “Shoislom Maxmudovich Shomuxamedov” (1982), “Georgiy Petrovich Vladimirov” (1984) (FA fundamental kutubxonasi va ToshdU Ilmiy kutubxonasi hamkorligida) kabilar nashrdan chiqarilgan.

Ba’zi o‘quv yurtlari tomonidan tuzilgan shaxs ko‘rsatkichlar ham turkumlarda nashr qilingan. Masalan, sobiq ToshdMI olimlariga bag‘ishlangan biobibliografik ko‘rsatkichlar “ToshdMI olimlari” (“Ucheniye TashgIK”) turkumida chop etilgan. Bu turkumda olimlarimizdan “Sobir Mirvaliyev ” (1982), “Nabi Raximov” (1987), “G‘ayrat Jalolov”, “Azizzon Po‘latovich Qayumov” (1987), “Abram Zinovyevich Vulis” (1991) larga bag‘ishlangan shunday ko‘rsatkichlar chiqarilgan.

Shuningdek, “Sail Rizo Alizoda” (SamDU,1986), Библиографический указатель Г. П. Владимира и статей о нём (ToshdU ilmiy kutubxonasi,1975), “Ozod Sharafiddinov” (1989), “Umarali Normatov” (ToshdU nashriyotida,1990), “Payon Ravshanov” (Hamid Olimjon nomidagi Qarshi davlat pedagogika instituti,1991) kabi ko‘rsatkichlar chiqarilgan.

Jumladan, 1990 yilda adabiyotshunos olim Umarali Normatov bibliografiyasi nashrda chiqqan. Ushbu ko‘rsatikchni M. Azimova tuzgan va ko‘rsatkichdagi materialarni sistemalashtirgan.

Ko‘rsatkich 7 bo‘limdan iborat bo‘lib, unda tanqidchining kitoblari, turli to‘plamlarda e’lon qilingan maqolalari, turli kitoblarga yozgan so‘z boshi va so‘ngi so‘zлari, turli adabiy jurnallarda, gazetalarda bosilgan maqolalari va taqrizlari, rahbarligida himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalar ro‘yxati, uning ijodi haqidagi asarlar - 1957 yildan 1990 yilgacha nashr qilingan 437 nomda hujjat aks ettirilgan.

Shuningdek, 199b yilda "Raxmatilla Inog'omov" bibliografik; ko'rsatkichi (Toshkent DU) nashrdan chiqdi. Ko'rsatkichni filologiya fanlari doktori, professor Sanjar Sodiq tuzgan. Unda Raxmatilla Inog'omovning kitoblari va risolalari, tarjimalari alohida berilgan. Gazeta, jurnal va to'plamlarda 1961 yildan 1995 yilgacha e'lon qilingan 213 nomdagi maqolalari aks ettirilgan.

1997 yilda Abdug'afur Rasulovga bag'ishlangan bibliografik ko'rsatkich (Toshkent Davlat Universitetida) nashrdan chikdi. Ushbu ko'rsatkichni M. Azimova tuzgan. Ko'rsatkichda taniqli tanqidchi, iste'dodli olim hamda mohir pedagog Abdug'afur Rasulovning alohida nashrlari, maqolalari, ilmiy-metodik asarlari, asarlari haqidagi maqolalar, taqrizlari 1964 yildan 1996 yilgacha nashr qilingan 199 nomdagi hujjat aks ettirilgan.

Yuqorida tahlil qilingan 3 ta ko'rsatkichda bibliografik tavsif qoidalariga to'liq rioya qilinmagan, tavsiflarda xatolar mavjud: nashr joylari to'liq ko'rsatilgan, kitoblarining betlari ko'rsatilmagan. Analitik tasvir berilmagan, yil va oylar to'liq yozilgan, tasvirlar abzatsdan boshlanmagan. Materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan bo'lib, unda ham xatolarga yo'l qo'yilgan. Shuningdek, bibliografik ko'rsatkichlar yordamchi apparatlar bilan ta'minlangan.

2003 yildan Naim Karimov biobibliografik ko'rsatkichi "Fan" nashriyotida nashrdan chikdi. Bu ko'rsatkichii hozirgi Toshkent viloyat "Turon" ilmiy universal kutubxonasi bibliografi M.Raximova tuzgan. Ko'rsatkichda tanikli jamoat arbobi va adabiyotshunos olim Naim Karimovning hayoti va ilmiy faoliyatining asosiy sanalari, ilmiy asarlarining alohida nashrlari vaqtli matbuot va to'plamlarda bosilgan maqola, taqriz, tarjima va she'rlari, u so'z boshi yozgan va muharrirlik qilgan asarlar, shuningdek, olimning ilmiy raxbarligida bajarilgan hamda u opponentlik qilgan dissertatsiyalar, bundan tashqari olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi 1953 yildan -2002 yilgacha nashr qilingan 885 nomda hujjat aks ettirilgan.

Ko'rsatkichda Naim Karimovning rus, qirg'iz, qozoq, turk, ingliz tillarida chop etilgan manbalari ham berilgan. Bibliografik ko'rsatkichda manbalar yillar bo'yicha alifbo tartibda joylashtirilgan.

Ko'rsatkichning vaqtli matbuotda va to'plamlarda bosilgan maqolalar bo'limida tuzuvchi juz'iy xatolarga yo'l qo'ygan. Jumladan 28 joyda oylar to'liq yozilgan. Ko'rsatkich ismlar ko'rsatkichi bilan ta'minlangan.

Shuningdek, 2017 yilda "Naim Karimov" biobibliografik ko'rsatkichi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasi xodimlar Z. Berdiyeva, I.Xudayberganovlar tomonidan nashrga tayyorlandi va chop etildi. Unida 1953 yildan - 2016 yillarda nashr qilingan manbalar kiritilgan. Ko'rsatkiya yordamchi apparatlar bilan ta'minlangan.

Shuningdek, akademik Naim Karimovning 90 yilligi munosabati bilan “Akademik Naim Karimov” biobibliografik ko‘rsatkichining yangilangan 3-nashri 2022 yilda “Mumtoz-So‘z” nashriyotida nashr qilingan.

Ko‘rsatkichda tanikli jamoat arbobi va adabiyotshunos, akademik Naim Karimovning hayoti va ilmiy faoliyatining asosiy sanalari, ilmiy asarlarining alohida nashrlari vaqtli matbuot va to‘plamlarda bosilgan maqola, taqriz, tarjima va she’rlari, u so‘z boshi yozgan va muharrirlik qilgan asarlar, shuningdek, olimning ilmiy raxbarligida bajarilgan hamda u opponentlik qilgan dissertatsiyalar, bundan tashqari olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi 1953 yildan 2022 yilgacha nashr qilingan 2021 nomdagi hujjat aks ettirilgan.

2018 yilda “O‘zbek adabiyotshunosligening ikki malikasi” nomi osida Ninel Vladimirova va Mashhura Sultonova zamondoshlari xotirasida kitobi nashr etilgan. Ushbu kitobda ikki adabiyotshunos olimalarning bibliografiyasi berilgan .

Xulosa qilib shuni aytish joizki, qator monografiyalar yaratib o‘zbek adabiyotshunosliga o‘zlarining munosib xissasini qo‘shtigan va qo‘sheyetgan adabiyotshunos olimlarimizga bag‘ishlab bibliografik ko‘rsatkichlar tuzish, kutubxona katalog va kartotekalarini boyitib borish xamda elektron shakllarini tayyorlash kabi ishlar bibliograflarning vazifalari ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Akademik Matyoqub Qo‘sjonov asarlarining nashrlari va bibliografiyasi (Olim tavalludining 105 yilligi munosabati. bilan) / M.I.Matmuradova // Kutubxona UZ.- 2023.–№3.–B.26–30.
2. Библиографияшунослик: дарслик / И.Ж.Юлдошев, Т. Байтураев, F.Нарзуллаев, Ҳ. Маматраимова. –Тошкент, 2022.–236 б.
3. Maxmudov, M.X. Umumiylar bibliografiya: o‘quv qo‘llanma / M.X.Mahmudov, G.Ziyodullayeva.–Toshkent, Aloqachi,2020. –200 b
4. Матмурадова М.Бадиий адабиётлар библиографияси: ўқув қўлланма/ М.Матмурадова.–Тошкент:А.Қодирий номидаги Тош. ДМИ босмахонаси,2008.– 58 б.
5. Matmuradova M.I. Bibliografiyashunoslik (Shaxs bibliografiyasi tuzish boyicha): o‘quv-uslubiy qo‘llanma / M.I.Matmuradova. –Тошкент,2024. –64 б.
6. Matmuradova M.I.O‘zbekiston adabiy bibliografiysi / M.I. Matmuradova // Jamiyatning innovatsion taraqqiyotida axborot-kutubxona muassasalarining o‘rni = Рол информационно-библиотечный в инновационном развитии общества = The role of information and library institutions in the innovative development of society: mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami, 2025-yil 14-may / mas’ul muharir B.S.Usmonov; tahrir hay’ati: M.Y.Xakimova [va boshq.].– Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2025.– Б.420.–424.
7. Матмурадова М.И. Ўзбек адабий биобиблиографияси / М.И.Матмурадова // Мустақиллик ва ўзбек миллий маданиятини ривожлантиришишнинг истиқболлари–Бешинчи чиқиши.–Тошкент, 2001.– Б.60–64.